

O‘ZINI O‘ZI BAND QILISH TIZIMI AFZALLIKLARI

Navro‘zova Farog‘atxon Abduxamid qizi

TDIU mustaqil izlanuvchisi


Annotatsiya:

Mazkur maqolada o‘zini o‘zi band qilish tizimi afzalliklari, aholining bandligi, ishsiz fuqarolarni o‘zini o‘zi band qilish tizimga jalb qilish imkoniyatlari haqida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: o‘zini o‘zi band qilish tizimi, soliq, shaxsiy kabinet, integratsiya.

Kirish:

2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida aholini yangi ish o'rnlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlashni yangi bosqichga ko'tarishda fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan[1]. Mamlakatimizda yangi ish o'rnlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish strategik maqsadlardan biri hisoblanadi. Shunga asosan, bu borada bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.



1-rasm. 2018-2021-yillarda O‘zbekistonda bandlik darajasi (foizlarda)



2018-2021-yillarda O‘zbekistondagi bandlik darajasi dinamikasining o‘zgarishlari tahlil qilinganda, mazkur yillar oralig‘ida respublikada bandlik darajasi pasayish tendentsiyasini namoyon qiladi (1-rasm). Bu ko‘rsatkich 2018-yilda 67,4 foiz, 2019-yilda 68,1 foizni tashkil etgan bo‘lib, 2020-yilga kelib 66,0 foizga pasaygan, 2021-yilda esa 67 foizga etgan.

Aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun qo‘sishma shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2020 yil 8-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik faoliyati va o‘zini o‘zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4742-sonli Qarori qabul qilindi[2].

O‘zini o‘zi band qilganlar – bu xizmatlar ko‘rsatishda mustaqil ravishda shaxsiy mehnati bilan ishtirok etadigan, mehnat daromadini olish uchun ish olib boruvchi shaxslar. Bunda ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro‘yxatga olinmaydi va yollanma xodimlar mehnatidan foydalanmaydi.

O‘zini o‘zi band qilgan fuqaro sifatida ro‘yxatdan o‘tishni xohlovchilar buni “Soliq” mobil ilovasidan foydalangan holda yoki jismoniy shaxslarning shaxsiy kabineti orqali masofadan turib, bepul amalga oshirishi mumkin.

Jismoniy shaxs sifatida shaxsiy ma’lumotlar kiritilganidan so‘ng, faoliyat turini tanlash lozim. Biryo‘la bir nechta faoliyat turlarini tanlashning ham iloji bor. Faoliyat ko‘rsatish joyi – viloyat va tuman, albatta ko‘rsatilishi kerak. O‘zini o‘zi band qilganlar har oy yakuni bo‘yicha buyurtma asosida olingan daromadlari va xarajatlari hisobini yuritishi va ijtimoiy solig‘ini hisoblashi mumkin. Istalgan vaqt oralig‘i uchun daromadlar va xarajatlar haqidagi to‘liq ma’lumotlar birgina tugmani bosish orqali shakllantiriladi.

PQ-4742-sonli qarorning 3-bandiga asosan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar 2020-yil uchun ijtimoiy soliqni bazaviy hisoblash miqdorining kamida 50 foizi hajmida to‘laydi. Ushbu summa to‘liqligicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi. Soliqlarni to‘lash masofadan turib, mobil ilova yoki har qanday elektron to‘lov tizimi orqali amalga oshiriladi. Bu jismoniy shaxslar uchun soliq to‘lash jarayoniga o‘xshaydi. Endi soliq majburiyatlarini soliq organlariga tashrif buyurmasdan bajarish mumkin.

Hozirgi vaqtida o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolar uchun xizmat turlari va imkoniyatlar kengaymoqda. Bir qator muhim funksiyalar va qulayliklar ishlab chiqilmoqda. Misol uchun, xizmatlarni mashhur elektron maydonchalarda reklama qilish, ko‘rsatilgan xizmat uchun to‘lovlarini qabul qilish imkoniyatlari

 yaratilmoqda. Mijozlar bazasi bilan aloqa o'rnatish iste'molchilar tomonidan berilgan baho va fikr mulohazalarni ko'rish imkonini beradi. Mobil ilovanining Android versiyasi bilan bir qatorda iOS versiyasi ham yaratilmoqda.

Aholi bandligini ta'minlashda, xususan, o'zini o'zi band qilish bo'yicha band etilganlarning hisobini yuritishda Soliq inspeksiyasi va aholi bandlikka ko'maklashish markazining integratsiyasi yo'lga qo'yilmaganligi hal etilishini kutayotgan masalaligicha qolmoqda. Shuningdek, aholi bandligi bo'yicha ma'lumotlar shaffofligi yuzasidan ham bir qator savollar tug'iladi.

2023 yil 1 yanvar holati bo'yicha 78 turdag'i faoliyat bilan o'zini o'zi band qilish mumkin. Xohishga ko'ra, ularning bir nechtasini birvarakayiga tanlash mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-fevraldagi "Kasanachilikni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-70-sonli Qaroriga muvofiq O'zini o'zi band qolgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari yana 19 taga ko'paytirildi va jami 97 tani tashkil etdi.

Mehnat staji hisoblanishi uchun o'zini o'zi band qilgan shaxslar, mehnat shartnomasi asosida chet elda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan chet davlatlarda tashkil etilgan savdo uylarida, vakolatxonalarda, tashkilotlarda ishlayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan yiliga BHMning kamida bir baravari miqdorida ixtiyoriy tartibda ijtimoiy soliq to'laydilar.

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni ham aytish joizki, o'zini o'zi band qilgan shaxslar — o'z ishini o'zi topib, uni o'zi bajarish orqali daromad ko'radigan jismoniy shaxslardir. Repetitorlar, enagalar, santoniklar, elektrchilar, sartaroshlar, kuryerlar, avtomobil yuvuvchilari, hunarmandlar, farroshlar, tikuvchilar, dasturchilar va yana ko'plab kasb egalari o'zini o'zi band qiluvchilar bo'lishlari mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. PF-60-coh 28.01.2022. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. Havola: <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. PQ-4742-coh 08.06.2020. Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. Havola: <https://lex.uz/docs/-4849607>

Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th March, 2023

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

- 
2. Abdurahmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini va uni takomillashtirish msalalari. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi, 2004.
 3. Adizov A. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish: – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya Akademiyasi, 2004.
 4. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. – Toskent: O‘zbekiston, 2019.